



## Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific  
Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://universaljurnal.uz)

Year: 2025 Issue: 2 Volume: 3

Published: 07.03.2025  
<https://universaljurnal.uz>



### International indexes

GOOGLE SCHOLAR  
CROSSREF (OAK BAZA)  
ZENODO  
OPEN AIRE  
EUROPUB  
RESEARCHGATE (OAK BAZA)  
SJIF

## DORIVOR ROZMARIN (ROSMARINUS OFFICINALIS) O‘SIMLIGINI YETISHTIRISH HAQIDA

**R.Y.Latipova., N.R.Xamidullayeva., S.I.Xusanov., D.S.To‘ychiyeva**  
Andijon davlat universiteti  
Uzbekistan

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada dorivor rozmarin (*Rosmarinus officinalis*) o‘simligini yetishtirish texnologiyasi yo‘ritilgan. Maqolada rozmarinning biologik xususiyatlari, agrotexnik, iqlim va tuproq sharoitlariga qo‘yiladigan talablar, o‘simlikni parvarishlash va hosilni yig‘ib olish usullari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlashni rivojlantirishga qaratilgan qarori asosida ushbu sohaning ahamiyati va istiqbollari tahlil qilingan. Maqolada dorivor rozmarin yetishtirish orqali fermer xo‘jaliklarining iqtisodiy samaradorligini oshirish va eksport salohiyatini rivojlantirish uchun amaliy tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** rozmarin, kraft qog‘oz, qalamcha, plantatsiya, ko‘chat, geteroauksin, optimal muhit.

**Аннотация:** В данной статье описана технология выращивания растения розмарин лекарственный (*Rosmarinus officinalis*). В статье рассмотрены биологические свойства розмарина, требования к агротехническим, климатическим и почвенным условиям, уходу за растениями и способам сбора урожая. Также на основании постановления Президента Республики Узбекистан, направленного на развитие выращивания и переработки лекарственных растений, проанализированы значение и перспективы данной сферы. В статье даны практические

рекомендации по повышению экономической эффективности фермерских хозяйств и развитию экспортного потенциала за счет выращивания розмарина лекарственного.

**Ключевые слова:** розмарин, крафт-бумага, загон, плантация, рассада, гетероауксин, оптимальная среда.

**Abstract:** This article discusses the technology of growing medicinal rosemary (*Rosmarinus officinalis*). The article considers the biological properties of rosemary, requirements for agrotechnical, climatic and soil conditions, methods of plant care and harvesting. Also, the importance and prospects of this industry are analyzed based on the resolution of the President of the Republic of Uzbekistan on the development of the cultivation and processing of medicinal plants. The article provides practical recommendations for increasing the economic efficiency of farms and developing their export potential through the cultivation of medicinal rosemary.

**Keywords:** rosemary, kraft paper, cuttings, plantation, seedling, heteroauxin, optimal environment.

**Language:** Uzbek

**Citation:** R.Y.Latipova, R., N.R.Xamidullayeva, N., S.I.Xusanov, S., & D.S.To'ychiyeva, D. (2025). ABOUT GROWING THE MEDICINAL ROSEMARY (*ROSMARINUS OFFICINALIS*) PLANT. Universal International Scientific Journal, 2(3), 26–30. Retrieved from <https://universaljournal.uz/index.php/jurnal/article/view/1462>

**Doi:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14986269>

Rozmarin kabi dorivor o'simliklarni yetishtirishning ahamiyati yurtimizda qishloq xo'jaligini rivojlantirish va sog'liqni saqlash tizimini mustahkamlash siyosati bilan uyg'unlashadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan "Dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-maydagi PQ-251-son qarori) ushbu sohani

yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan muhim hujjat bo'lib, dorivor o'simliklarni sanoat miqyosida yetishtirish, ularni qayta ishlash va eksport salohiyatini oshirishga keng yo'l ochib berdi.

Mazkur qaror doirasida yer resurslaridan samarali foydalanish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va dorivor o'simliklarni mahalliy sharoitga moslashtirish orqali fermer va tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, rozmarin kabi yuqori iqtisodiy va

ekologik qiymatga ega o'simliklarni yetishtirish dolzarb masalalardan biriga aylangan. Ushbu maqola rozmarin yetishtirish texnologiyasi haqida batafsil ma'lumot berib, uni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun zarur bo'lgan amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

So'nggi yillarda rozmarin yetishtirishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Bu o'simlikning iqtisodiy samaradorligi, yuqori hosildorligi va qurg'oqchilikka chidamliligi uni tijorat maqsadida yetishtirish uchun jozibador qiladi. Shunga qaramay, rozmarin yetishtirish texnologiyasini to'g'ri tashkil qilish va agrotexnik talablarga rioya qilish muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada rozmarin o'simligini muvaffaqiyatli yetishtirish uchun zarur bo'lgan asosiy texnologiyalar, tuproq va iqlim talablaridan boshlab, parvarishlash va hosil yig'ish jarayonlarigacha bo'lgan bosqichlar ko'rib chiqiladi.

Dorivor rozmarin qalamchasidan, kamdan kam urug'idan ko'paytiriladi. 2-3 yillik ko'chatlari ekiladi. Ekilgandan keyin 2-3-yildan boshlab bargi va to'pguli yig'ib olinadi. Hosildorligi 40-120

s/gani tashkil etadi. Butalari 7 - 9 yilda yoshartiriladi. Rozmarin 20-25 yilgacha hosil beradi. Barglari va to'pgullari tarkibida parfyumeriya va tibbiyotda ishlatiladigan 1,5 - 2,5% (quruq moddaga nisbatan) efir moyi, 0,5% gacha rozmaritsin va boshqa alkaloidlar, ursol va rozmarin kislotalari bor.

O'simlikni plantatsiyasini tashkil etish uchun avvalambor, ko'chat tayyorlash zarur. Urug'idan unuvchanligi past. Shu sababli asosan vegetativ usulda qalamchalardan ko'paytiriladi.

O'zFA ma'lumotlariga ko'ra, yetilmagan (hali yog'ochlanmagan) qalamchalarga ishlov berish uchun past, chala yetilganlari uchun o'rta, yog'ochlangan qalamchalar uchun esa yuqori darajadagi o'stiruvchi moddalar aralashmasi ishlatiladi. Qalamcha tayyorlashda geteroauksindan foydalanish ildiz otishini 10-15%ga oshiradi. Oz miqdorda margansovka eritmasi yordamida ishlov berish ham ildiz otishni tezlashtirib, tuproqdagi chirish jarayonini pasaytiradi. Qalamchalar iyul-avgust oylarida poyasi yog'ochlangan novdalardan 15-20 sm uzunlikda kesiladi.

Nam matoga o'ralgan qalamchalar 25 tadan qilib bog'lanadi va bog'-bog'i bilan vannachaga yoki shisha, sirli, zanglamaydigan po'lat idishga joylanadi. Eritma qatlami 3-3,5 sm dan baland va 1,5-2 sm dan kam bo'lmasligi kerak. Qalamchalarga soat 17.00-17.30 da ishlov beriladi, tuni bilan qoldirilib, ertalab ichimlik suvida yaxshilab yuviladi va tuoroqqa ekiladi. Ildiz ottirish uchun bunday qalamchalarni issiqxonalarda maxsus tayyorlangan substratlarga qadash kerak. Issiqxonada 1 m<sup>2</sup> ga 2 chelak nisbatda tayyorlangan chirigan go'ng bilan o'g'itlangan va yaxshilab chopilgan, tekislangan, ustiga 15 sm qalinlikda daryo qumi to'shalgan tuproq qalamcha ekish uchun optimal muhit hisoblanadi. Qalamchalar 5-10 sm chuqurlikka qiyalatib ekiladi. Kuniga 4 marta, har uch soatda sug'orib turiladi. Qalamcha ekilganidan 20-30 kun o'tgach, ildiz otish nuqtalari bo'rtishi namoyon bo'ladi. Bu vaqtga kelib kundalik sug'orish miqdori 2 martagacha kamayadi (ertalab va kechqurun). Oktyabr oyida sug'orish miqdori 1 martagacha kamaytiriladi (ertalab). So'ngra haftasiga bir marta ko'chat tayyor bo'lgunga qadar sug'oriladi.

Qalamchalar issiqxonalarda erta bahorda tayyor ko'chat bo'lib yetiladi. Tayyor bo'lgan ko'chatlar plantatsiyaga ekilgunga qadar, maydon 25-30 sm chuqurlikda haydaladi, tekislanadi va 60-70 sm oralig'ida qator tortiladi. Tuplar oralig'i 20 sm masofada ko'chatlar o'tkaziladi va zaxlatib sug'oriladi. Yil davomida o'simliklar 8-9 marta sug'oriladi. Har 2-3 sug'orishdan keyin kultivatsiya qilinadi, begona o'tlardan tozalanadi. Tavsiya etilgan agrotexnikaga qat'iy amal qilinganda o'simlikning o'sish va rivojlanishi talab darajasida bo'ladi. Hosildorlik, yani o'simlikning asosiy poyasi va yon shoxlarining 10-15 sm uchki qismi va butun tupdagi barglari, gektar hisobida 5-7 sentnerni tashkil etadi.

Shunday qilib, rozmarin yetishtirish yurtimizda iqtisodiy jihatdan foydali va ekologik barqaror qishloq xo'jaligi faoliyatlaridan biri sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada rozmarin o'simligining agrotexnik talablari, parvarishlash usullari va yetishtirish texnologiyalari ko'rib chiqildi. Rozmarin yetishtirish texnologiyasiga to'g'ri rioya qilish nafaqat fermer xo'jaliklarining

daromadini oshiradi, balki mamlakatimiz qishloq xo'jaligida yangi innovatsion yo'nalishlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu sohada samarali ish olib

borish uchun ilmiy izlanishlarni davom ettirish va amaliy tajribalarni kengaytirish muhimdir.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan "Dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-maydagi PQ-251-son qarori)
2. B.Yo.To'xtayev, T.X.Mahkamov, A.To'laganov, A.V.Mahmudov «Dorivor va ozuqabop o'simliklarni plantatsiyalarini tashkil etish va xomashyosini tayyorlash bo'yicha metodik qo'llanma», Toshkent, 2015.
3. Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке», ноябрь, 2023 г., № 15(100), часть 2, с.1035-1036.
4. <https://www.ozon.ru › club › article › kak-vyrastit-rozmarin>.
5. <http://www.sort-semena.ru › vegetech › rozmarin>.
6. <https://indoor-plants.org › katalog-rastenij › rosmarinus>.